

KONSTITUTSIYAMIZ-KELAJAGIMIZ POYDEVORI

Nurmuhamedov Murodjon Raximjanovich

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti
akademik litseyi tarix oqituvchisi*

*Litsey manzili: Toshkent shaxar shayxotoxur tumani,
Zulfiyahonim ko'chasi, 18 uy. Telefon: 909267980*

Annotatsiya: Ma'lumki, Konstitutsiya insonlarga mamlakatida erkin yashash, o'zini yurt himoyasida ekanligini his qilishlari uchun sharoit yaratadi. Ushbu Konstitutsiya fuqarolarga muayyan huquq va o'z navbatida majburiyatlarni ham yuklaydi. Shu kunga qadar qabul qilingan qonun, qaror, farmon, kodeks va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning barchasi Konstitutsiyaga asoslanadi va uni to'ldiradi. Shunday ekan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar barchamiz uchun o'ta uhim va ahamiyatlidir. Qolaversa, hozirda har bir fuqaroga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga taklif berish bo'yicha barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, kodeks, farovon hayot, ijtimoiy himoya, huquq.

KIRISH

Ma'lumki, inson qadrini ulug'lash, har kimning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliishiga aylandi. Ushbu jarayonda inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yangi normalar, tartib va qoidalar o'zining ijobiy natijasini berish bilan birga jamiyatda hal etilishi kerak bo'lgan masalalarni ham ko'rsatdi.

Bundan oldin Konstitutsiyaga kiritilgan normalar asosan davlat boshqaruvi tashkilotlariga taalluqli bo'lgan bo'lsa, endigi o'zgarishlar inson qadri va huquqlarining ta'minlanishiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Davlat rahbari kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan o'tkazgan uchrashuvida ham ba'zi masalalarni ilgari surdi.

Bosh qomusimiz loyihasini ishlab chiqishda birinchi yo'naliish sifatida «Inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi» belgilandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qonunchilik palatasi Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha umumxalq referendumini — 30 aprel, yakshanba kuni o'tkazishni ma'qulladi. Tegishli qarorni 134

nafar deputat qo'llab-quvvatladi, 2 nafari betaraf qoldi, 1 nafari esa ovoz bermadi. Avvalgi referendum bundan 21 yil avval bo'lib o'tgandi.

O'zbekistonda Konstitutsiyani o'zgartirish bo'yicha xalq saylovi — referendum 30 aprel kuni bo'lib o'tadi.

Tegishli qaror loyihasi Qonunchilik palatasining 10 martdagi yalpi majlisida ko'rib chiqilib, deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paymoqda. Konstitutsiya matni 65 foizga yangilangan, shuning uchun hujjat nomi «Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar»dan «Konstitutsiya yangi tahrirdagi»ga o'zgartirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanliga va uning davlat va jamiyat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda). Konstitutsiyamizning alohida bir bobo oilaga bag'ishlanib, uning ijtimoiy maqomi aniq ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchramaydigan kamyob voqelikdir. Ahamiyatlisi shundaki, hech bir davlatning konstitutsiyasida oilaga bag'ishlangan bob va moddalar mavjud emas. Bu esa yurtimizda oilaga e'tiborning kuchliliginini, oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini, davlat taraqqiyotini belgilaydigan kelajak avlodni tayyorlab beruvchi maskan ekanligini ifodalaydi.

Xususan konstitutsiyamiz yoshlarga oid munosabatlarni ham aniq ifodalab bergen. Konstitutsiyamizdaga har kim bilim olish huquqiga ega ekanligini ta'minlovchi norma(41-modda) butun O'zbekiston yoshlarini ta'lim olish erkinligini kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi faqat jamiyatda kishilarning yurish-turishinigina ifodalab qolmay ularning barcha huquqlari va erkinliklarini yaqqol ifodalaydi. Zero konstitutsiyamiz avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun, ajralmas huqqu va erkinliklarini himoya qilish uchun „O'zbekiston xalqi nomidan qabul qilinadi. Bosh qomusning **41-moddasiga** quyidagicha o'zgartirish kiritilishi ko'zda tutilmoqda:

“Davlat uzlucksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining rivojlantirilishini ta'minlaydi”.

Qayd etilishicha, loyiha yuzasidan o'tkazilgan umumxalq muhokamasida kelib tushgan takliflar asosida qonun loyihasiga yana bir qancha yangi normalar kiritilishi nazarda tutilmoqda. Xususan, Konstitutsiyaning **26-moddasiga** bunday qism qo'shilishi ko'rib chiqilmoqda:

“Shaxsning o'z aybini tan olishi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas”.

Shu yo'sinda yana bir qator moddalarni ham yangilash, ularga qo'shimcha normalar kiritish rejalashtirilmogda. Jumladan, quyidagicha **37-1-moddasi** kiritilmoqda:

"Davlat fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash uchun ularning kasbiy tayyorgarligi hamda qayta tayyorlanishini tashkil etadi va rag'batlantiradi".

Ma'lumki, davlat va jamiyat hayotida ba'zi bir narsalar bo'ladiki, u Vatanimiz kabi yagonadir: bayrog'imiz bitta, gerbimiz bitta, madhiyamiz bitta, shu qatori Konstitutsiyamiz ham bitta. Bularning har biri o'z timsolida ona Vatanimiz, xalqimizning ezgu-maqсадalarini o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda Konstitutsiyamiz har bir fuqaro uchun bayrog'imiz, gerbimiz, madhiyamiz kabi muqaddasdir.

Bosh qomusimiz qabul qilinishidan maqsad va vazifalarga e'tibor beradigan bo'lsak, muqaddimasida mamlakatimiz fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilish, demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilinganligi qayd etilgan. Ya'ni Konstitutsiyamizning asosiy mohiyati insonga munosib hayot sharoitlari yaratish, uni baxtli qilishdan iborat.

Yana muhim hamda xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etiladigan xususiyat – bu Konstitutsianing "O'zbekiston xalqi" deb boshlanishidir. Bunday jumlalarni boshqa biron bir qonunda uchratmaymiz. Buning o'zi ham xalq hokimiyatchiligining yorqin dalolati.

Konstitutsiyamizning yana bir eng muhim xususiyati – bu xalq suvereniteti e'tirof etilganligidadir. Asosiy qonunimizning 7-moddasida asosan xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekani muhrlangan. Asosiy qonunimizda "demokratiya" va "demokratik" so'zleri 7 marta, "xalq" so'zi 24 marta qo'llangan.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim lozimki, konstitutsiyamiz tinch, osoyishta, farovon hayotimizning kafili va poydevoridir. Xalqimizining go'zal, baxtli kunlarining asosi va kelajak yoshlарining imkoniyatlari ta'minlangan kitobdir. Konstitutsiyamiz bashariyat bizga sovg'a qilgan huquqlarimiz, erkinlik va burchlarimiz desam, aslo mubolag'a qilmagan bo'laman. To'la ishonch bilan aytishim mumkinki, xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan konstitutsiyamiz hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta yashashimizning qonuniy kafolatidir.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida so‘zlagan nutqidan.
4. «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi» O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni.
5. Husanov O.T „Konstitutsiyaviy huquq Darslik. Toshkent „Adolat 2013.
6. www.stat.uz
7. www.norma.uz
8. Xalqso‘zi.uz